**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**
**Moliya va bank ishi kafedrasining navbatdan tashqari**
**№ 12 sonli yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma**

25.03.2025 yil                                                                                    Denov shahri.

Qatnashdilar: DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi D.Xudoyberdiyev, kafedraning barcha professor-o'qituvchilari.

**KUN TARTIBI:**

2. Bank ishi fani o'qituvchisi X.Ravshanovning "Soliq va soliqqa tortish" fanidan "Banklarda buxgalteriya operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish" mavzusida bir soatlik ochiq dars muhokamasi.

**ESHITILDI:**

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan kafedra katta o'qituvchisi Sh.Xudoynazarov so'zga chiqib quyidagi ma'lumotni berdi.

X.Ravshanovning 2025-yil 25-mart sanasida Buxgalteriya hisobi va audit 7BX-2022 guruh talabalariga "Soliq va soliqqa tortish" fanidan "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq" mavzusida ochiq darsi bo'lib o'tdi.



Mazkur ochiq dars tahlilida DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi D.Xudoyberdiyev, kefedra o'qituvchilaridan Z.Shukurov, A.Sheraliyev, A.Ostanaqulovlar ishtirok etdilar. Ochiq darsda X.Ravshanov tomonidan dars mavzusi va rejasi auditoriya taxtasida yozilgan bo'lib, slaydda ham ko'rsatilgan va tematik reja va dasturga muvofiq o'tildi. O'qituvchi qoidaga muvofiq darsni boshladi. Dars jurnallarda qayd etilib, talabalar davomati hisobga olindi. O'tgan dars yuzasidan talabalar tushunchasi tekshirilib, bugungi ma'ruza bilan bog'liqligi tushuntirildi.



Dars o'tish jarayonida dars maqsadlari aytib o'tildi. Talabalarning bilimi yaxshi, o'qituvchi turli usullar bilan talabalarni o'z ortidan ergashtira oldi. Dars davomida uzilish bo'lib qolmadi. Soliq va soliqqa tortish fani yo'nalishi bo'lganligi uchun dars ham qiziqarli olib borildi. Dars vaqtlari rejaning birinchi qismiga ko'p vaqt sarflandi, darsni mustahkamlash ham talabalar bilan savol-javob tarzida o'tkazildi. Mavzu yuzasidan "Daraxt usuli", "Menga so'z bering", "Aqliy hujum", "Oldindan ko'zlangan xato", "Venn diagrammasi" kabi interfaol metodlardan foydalandi. Shuning uchun ochiq darsni namunali deb baholayman.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani f.f.b.f.d. (PhD) M.J.Toshboboyev, Institut Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimi D.Xudoyberdiyev, kefedra o'qituvchilaridan Sh.Xudoynazarov, A.Sheraliyevlar ham o'z fikrlarini bildirdilar.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish

**Qaror qilindi:**

1. X.Ravshanovning "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq" mavzusidagi ochiq darsi namunali deb baholansin.

**Kafedra mudiri:** **O.Melikov**

**Yig'ilish kotibi:** **B.Xolmirzayev**

**Dars tahlili**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti Moliya va bank ishi kafdrasi mudiri tomonidan 2024-2025 o'quv yilida o'tkaziladigan ochiq darslar o'tkazish reja grafigiga asosan **2024 yil 04 noyabr** kuni dars tahlillari o'tkazildi.

Dars tahlilida institut ta'lim sifatini nazorat qilish bosh mutaxassisi **D.Xudoyberdiyev**, Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani **M.Toshboboyev** va Moliya va bank ishi kafedrasi mudiri **O.Melikov va kafedra dotsenti R.Bozorov**lar ishtirok etdi.

O'tkazilayotgan dars tahlili 3-kurs. Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishiga **"Moliya asoslari"** fanidan "Moliya va bank ishi" kafedrasi stajyor o'qituvchisi **X.Ravshanov** ma'ruza darsi tahlil etildi: Mashg'ulot o'z vaqtida belgilangan auditoriyada, belgilangan tartibda boshlandi, stajyor o'qituvchisi X.Ravshanov tomonidan yo'qlama qilinib darsda yo'qlar qaydnomaga qayd etildi. Mashg'ulot mavzusi **"Moliyaviy bozorlar"** bo'lib, mavzuni taqdimot va video roliklar hamda tarqatma materiallar bilan o'tildi. Guruhdagi 1I-2022 jami talabalar soni 36 nafar, qatnashgan talabalar soni 34 nafarni tashkil etdi. Professor-o'qituvchining fan bo'yicha ishchi o'quv dasturi va kalendar-tematik rejasi mavjud.

Mavzuga oid o'quv materiallari yetarli. Mavzu ishchi o'quv dasturi va kalendar-tematik rejaga mos.

Guruh bo'yicha talabalarning faolligi kuzatildi. Mashg'ulot mavzu doirasida olib borildi, mavzuni auditoriyaga eshitilishi va mazmunini yetkazilishi hamda hozirgi dolzarb masalalarga bog'lab tushintirilishi yaxshi.

Mashg'ulotda pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi- *qo'llanildi. Mashg'ulot davomida barcha talaba dars jarayonida savol bilan ishtirok etdi).*

***Kamchiliklar:*** *Ma'ruza dars vaqt me'yori bo'yicha talabalar bilan sovol javob qilishga yetmadi.*

**X.Ravshanov**ni dars tahlili, ***hulosa "yaxshi"*.**

**Dars tahliliga kiruvchilar:** ____________ **D.Xudoyberdiyev**
____________ **M.Toshboboyev**
____________ **O.Melikov**

**Professor-o'qituvchi:** ____________ **X.Ravshanov**